



PEDAGOGIKA FANIDA SOHIBQIRON AMIR TEMURNING TUTGAN O'RNI

Mahmudov Bekzod Eshqobil o'g'li

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti. Tarix yo'nalishi talabasi

mahmudovb154@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21836769>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 29-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 31-iyul 2026 yil

KEYWORDS

Pedagogika fani, pedagogik qarash, Sohibqiron, Amir Temur, yosh avlod, vatanparvarlik ruhi, adolat, saxovat, vijdon, imon-e'tiqod.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, Sohibqiron Amir Temurning pedagogika sohasida tutgan o'rni va ta'lim- tarbiya borasida olib borgan siyosati shuningdek, pedagogik qarashlari batafsil yoritilgan.

Pedagogika fanida Sohibqiron Amir Temurning tutgan o'rni yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va komil insonni shakllantirish g'oyalari asoslanadi. Uning merosi davlat boshqaruvi, adolat va ilm-fanni ulug'lash tamoyillari orqali zamonaviy pedagogik yondashuvlar uchun muhim ibrat manbai hisoblanadi.

Amir Temur ko'ragon ibn amir Tarag'ay 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytlardagi Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xojailg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topdi. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Lekin bo'lajak sohibqiron tavallud topgan paytda Qozonxon (1333—1346) huzurida kichik bir mansabga ega edi. Amirning onasi Tegina Begim Buxorolik «Sadr ash sha'ri'a-shariat» ulug'i, taniqli olim, Ubaydullohning qizi bo'lgan. O'sha paytda Kesh va unga tobe yerlarning bekligi esa Amir Tarag'ayning og'asi Hoji Barlosning qo'lida edi¹.

Temur 7 yoshidan bilim olishni boshlaydi. U yosh bolalik davridan boshlab mard, dovyurak, jasur bo'lib o'sadi. Harbiy san'atni mukammal egallaydi. Qur'oni karimni yod oladi, hadis ilmini o'rganadi. Dunyoviy bilimlarga ham ega bo'ladi. Shuning uchun ham imon-e'tiqodli, halol, pok, aql-zakovatli, o'z e'tiqodiga mustahkam rioya qiladigan davlat arbobi bo'lib yetishadi².

Buyuk bobokalonimiz yoshlik kezaridan boshlab Sharq tarixi va falsafasiga, adabiyot va san'atga, islom dini va uning odob-axloqqa oid muqaddas ta'limotiga imon-e'tiqod bilan qaragan. U xandasa, falakiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jug'rofiya, tibbiyot, adabiyot va san'at ilmlarini teran o'zlashtirgan. Zamonasining rasmiy uch tili –

¹ M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov. // Umumiy pedagogika // O'quv qo'llanma. Toshkent – 2018. 198 b.

² R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S. Ilafizov. Umumiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, 392 bet.

turkcha, forsha va arabchani chuqur va mukammal bilgan. Temurning shijoatli ruhida ilm va ilm ahliga hurmatu e'zosi favqulodda kuchli bo'lgan. «Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idanoq mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halol-pok inson bo'lib yetishdi»³.

Amir Temur yoshligida olishuv-kurash, ot o'yinlari, chavandozlik, poyga, merganlik (tirandozlik), qilichbozlik, nayzabozlik, tosh ko'tarish, uzoqqa chopish kabi musobaqalarda qatnashib, chiniqqan. Yoshligidagi bu o'yin-mashqlar keyinchalik sohibqironga juda asqotgan.

O'zi o'yin-mashqlarda chiniqqan Amir Temur xalq o'yinlaridan o'z qo'shinini harbiy jihatdan tayyorlashda keng foydalangan. Jahongir Amir Temur qo'shinini ruhiy va jismoniy bardam qilish uchun mashq, musobaqa, o'yinlar tizimini yaratgan⁴.

«Tarixiy manbalarda zikr etilishicha, Amir Temur xushfe'llik, adolat, saxovat, lutfi-karam, islom axloq-odob qoidalariga rioya va amal qilish, insonlarni jamiyatda tutgan o'rinlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar barobar xurmat qilish, ular bilan samimiy muomalada bo'lish, berilgan va'da va zimmaga olingan ahdnomalarni vaqtida bajarish kabi qator yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lgan. U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurti mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini xar sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-axloq, imon, e'tiqod, ta'lim tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Bular «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temuriyning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarni XV asr muarrixi Fosihi Ahmad Havofiyning «Mujmal-i Fosixiy», Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas) va Sharafiddin Ali Yazdiylarning mashhur «Zafarnoma», ibn Arabshoh (1389—1450)ning «Ajoyib ulmaqdur fi axbori Temur» (Amir Temur haqidagi xabarlar taqdir ajoyibotlari), Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja eshonning (Salohiddin Toshkandiy) qalamiga mansub «Temurnoma» (Amir Temur ko'ragon jangnomasi, 1908) kabilar Shular jumlasidan. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baholaydi.

Birinci sifat: «Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim».

Ikkinchi sifat: «Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim».

Uchinchi sifat: «Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim».

³ Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- jild, - T.: „O'zbekiston“. 1996. 360 bet.

⁴ N.S.Atayeva, F.Rasulova, M. Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. – T.: «Fan va texnologiya», 2012, 756 bet.

To'rtinchi sifat: «Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim. Qur'ondagi parvardigorning Allohning amriga bo'ysunish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatini o'zimga farz bilib, uqib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarimda unga amal qildim».

Beshinchi sifat: «Islomga taalluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib qeldim. Avval tangri itoatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim».

Oltinchi sifat: «Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim». Yettinchi sifat: «Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim».

Sakkizinchi sifat: «Doimo o'zimni Allohning yerdagi mulkning posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim. Tangrining irodasiz uning bandalarining hech biriga zarar yetkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo'lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko'proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo'lgan voqea menga ibratli bo'ldi. O'z fuqarolarining mol-mulkiga nisbatan ochko'zligi pirovardida uni halokatga olib keldi».

To'qqizinchi sifat: «Men har doim tangrimning amrini uning payg'ambarlarini hadislarini to'la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo'sunlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o'zimni tiydim. Payg'ambar va uning sahobalarini o'zimning yagona va eng yaxshi do'stlarim deb bildim».

O'ninchi sifat: «Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va imyon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug'ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo'ladi».

O'n birinchi sifat: «Men doim saidlarga ehtirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e'zozlardim. Bu kishilarni doimo majlislarimga chaqirardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi».

«Yana tajribamda ko'rib bildimki,— deydi Amir Temur davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim... O'z saltanatimni shariat bilan bezadim»⁵.

Amir Temur umr bo'yi quyidagi o'n ikki tamoyilga amal qilgan:

1. Har yerda va har vaqtda islom dinini qo'llab-quvvatlagan.
2. Davlat ishlarini kengash asosida boshqargan.
3. Saltanat ishlarini murosayu madora orqali yurgizgan.
4. Davlat ishlarini qonun-qoida va tuzuklarga asoslanib boshqargan.

⁵ Temur tuzuklari. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 57-bet.

5. Amirlar va sipohiylarga hurmat ko'rsatgan.
6. Adolat va insofga tayangan.
7. Fuqarolarga izzat-hurmat ko'rsatgan.
8. Azmu jazm bilan ish tutgan.
9. Raiyat ahvolidan doimiy ogoh bo'lgan.
10. Turku tojik, arabu ajamning turli toifalariga hurmat ko'rsatgan.
11. Do'stlarni unutmagan va ularga yordam bergan.
12. Har joyda sipohiylarni hurmat qilgan⁶.

Amir Temurning buyukligi shundaki, u hech kimdan o'ch olish payida bo'lmagan, tuzini tatib, yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirgan. Sofdil kishilar, olim va fozillarga dargohi ochiq bo'lgan, nafsi yomon, ko'ngli buzuvchi kimsalarni esa o'ziga yaqinlashtirmagan. Har kimning qadr-qimmatini amaliy faoliyati, odob-axloqi, imon-e'tiqodiga qarab o'lchagan.

Ana shu tariqa sohibqiron bobomiz adolat, qadr-qimmat, or-nomus, burch, mas'uliyat, vijdon, imon-e'tiqod, halollik, fidoyilik singari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida necha-necha avlodu ajdodlarga dastur va yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladigan ta'limotlar yaratgan va hayotga shaxsan o'zi joriy etgan.

Xulosa shundan iboratki, Sohibqiron ma'naviy merosini o'rganish – o'tmishni eslash emas, balki buyuk kelajak yoshlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov. // U m u m i y p e d a g o g i k a // O'quv qo'llanma. Toshkent – 2018. 198 b.
2. R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S. Ilafizov. Umumiy pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, 392 bet.
3. Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- jild, - T.: „O'zbekiston“. 1996. 360 bet.
4. N.S. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. – T.: «Fan va texnologiya», 2012, 756 bet.
5. Temur tuzuklari. – T.: G'. Gulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 57-bet.
6. B.X. XODJAYEV. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.
7. – T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

⁶ B.X. XODJAYEV. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.
– T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.